


III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

2022 yilning yanvar-dekabr oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi


Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 14 359,1 mlrd. so‘mni yoki 2021 yilning mos davriga nisbatan 103,3 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 13575,6 mlrd. so‘mni (103,6 %), o‘rmon xo‘jaligi 551,4 mlrd. so‘mni (102,1 %), baliqchilik xo‘jaligi 232,2 mlrd. so‘mni (90,4 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasining ulushi 3,9 % ni tashkil qildi.



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sish sur'ati



Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so'm



2022 yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Amudaryo (2694,7 mlrd. so'm) va Beruniy (1706,7 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Mo'ynoq (200,4 mlrd. so'm) tumani va Nukus shahar (93,3 mlrd. so'm)larni keltirib o'tish mumkin.

**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining
xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)

Hosil yig‘imi. 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 287,1 ming tonna don ekinlari ishlab chiqarildi.

Bundan tashqari barcha toifadagi xo‘jaliklarda 90,6 ming tonna kartoshka, (2021 yilga nisbatan 1,4 foizga ko‘p), 314,6 ming tonna sabzavot (4,3 foizga ko‘p) yig‘ib olindi, 173,5 ming tonna poliz ekinlari (5,3 foizga ko‘p), 64,9 ming tonna meva va rezavorlar (4,7 foizga ko‘p) va 11,5 ming tonna uzum (3,8 foizga ko‘p) yetishtirildi.

**2022 yilning yanvar-dekabrida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagi
dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	Ferma xo‘jaliklari		Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari		Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o‘sish sur‘ati, foizda	tonna	o‘sish sur‘ati, foizda	tonna	o‘sish sur‘ati, foizda
Jami don	223 839	105,0	35 527	95,7	27 737	133,4
Kartoshka	29 282	101,0	60 719	101,5	583	101,6
Sabzavotlar	124 629	111,4	184 696	102,2	5 238	58,8
Poliz	91 382	110,0	78 736	101,6	3 356	81,0
Mevalar va rezavorlar	28 749	112,7	26 795	103,0	9 354	89,3
Uzum	4 609	108,0	6 068	101,7	854	96,7




Dehqonchilik

2022 yilning yanvar–dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 6631,9 mlrd. so‘mni yoki 2021 yilning mos davriga nisbatan 103,1 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 49,5 % ni tashkil qildi.

Donli ekinlar

Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo‘jalik toifalari bo‘yicha
taqsimlanishi, %




● Fermer xo‘jaliklari


● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvch tashkilotlar


Hajmi, ming tonna





O‘sish sur‘ati, % da




Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha donli ekinlar yetishtirish hajmi, tonna.



Sabzavotlar




Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da



2022 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 314,6 ming tonna sabzavotlar (2021 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 4,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 58,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.


- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi)
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna




Kartoshka


Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati, % da




Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, %
da





- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi)
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2022 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 90,6 ming tonna kartoshka (2021 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 1,4 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, kartoshka mahsuloti umumiy hajmidan 67,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.


Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha kartoshka yetishtirish hajmi, tonna



Poliz



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da





2022 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 173,5 ming tonna poliz (2021 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 5,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Poliz mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, poliz mahsuloti umumiy hajmidan 52,7 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.

● Fermer xo'jaliklari ● Dehqon (shaxsiy yordamchi) ● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo'yicha
poliz yetishtirish hajmi, tonna



Mevalar va rezavorlar




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi)
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2022 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 64,9 ming tonna mevalar va rezavorlar (2021 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 4,7 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Mevalar va rezavorlar mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, mevalar va rezavorlar mahsuloti umumiy hajmidan 44,3 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.


Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha meva va rezavorlar yetishtirish hajmi, tonna




*Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi*

Uzum


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da



2022 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 11531 tonna uzum (2021 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 3,8 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Uzum mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, uzum mahsuloti umumiy hajmidan 52,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.

● Fermer xo'jaliklari ● Dehqon (shaxsiy yordamchi) ● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo'yicha **uzum yetishtirish hajmi, tonna**




Chorvachilik



2022 yilning yanvar-dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6757,2 mlrd. so‘mni yoki 2021 yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 50,5 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.

2022 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 120,5 ming tonna go‘sh (2021 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 3,5 % ga ko‘p), 434,0 ming tonna sut (3,6 % ga ko‘p), 387,0 mln. dona tuxum (1,9 % ga ko‘p) va 11148,6 tonna baliq (88,2 %) ovlandi.




Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati, % da




Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da





2022 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 120,5 ming tonna go'sht (2021 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 3,5 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 94,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.

- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha go'sht (tirik vaznda)
yetishtirish hajmi, tonna



Sut




**Ishlab chiqarilgan
mahsulotlarning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi, % da**






2022 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 434,0 ming tonna sut (2021 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 3,6 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 92,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha ishlab chiqarilgan sut yetishtirish hajmi, tonna



Tuxum




Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha olingan tuxum yetishtirish hajmi, ming dona




Baliq


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati, % da




Ishlab chiqarilgan
mahsulotlarning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2022 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 11148,6 tonna (2021 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 88,2 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 42,5 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha ovlangan baliq hajmi, tonna




Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2023 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,9 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 8,1 % i fermer xo'jaliklariga, 90,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 26,2 % i fermer xo'jaliklariga, 70,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 3,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 9,3 % i fermer xo'jaliklariga, 77,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 13,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, % da



Bosh sonining xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari


● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2023 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:


- yirik shoxli qoramollarning umumiy soni 1208,7 ming boshga yetdi.
- yirik shoxli qoramollar bosh soni 2022 yilning 1 yanvariga nisbatan 32,8 ming boshga (2,8 %) ko'paydi.
- yirik shoxli qoramollar bosh sonining 93,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yirik shoxli qoramollarning bosh soni, ming bosh




Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, % da



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari


● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2023 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:


- sigirlarning umumiy bosh soni 350,2 ming boshga yetdi.
- sigirlarning bosh soni 2022 yilning 1 yanvariga nisbatan 9,6 ming boshga (2,8 %) ko'paydi.
- sigirlar bosh sonining 90,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo'yicha **sigirlarning bosh soni, ming bosh**




Qo'y va eshkilar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, % da



Bosh sonining xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi



2023 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:


- qo'y va eshkilarning umumiy bosh soni 1213,8 ming boshga yetdi.
- qo'y va eshkilarning bosh soni 2022 yilning 1 yanvariga nisbatan 35,3 ming boshga (3,0 %) ko'paydi.
- qo'y va eshkilar bosh sonining 82,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

Fermer
xo'jaliklari



Dehqon (shaxsiy yordamchi)
xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga
oshiruvchi tashkilotlar


Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha qo'y va eshkilarning bosh soni, ming bosh



Otlar



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari ● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari ● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2023 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:


- otlarning umumiy soni 27614 boshga yetdi.
- otlar bosh soni 2022 yilning 1 yanvariga nisbatan 900 boshga (3,4 %) ko'paydi.
- otlar bosh sonining 70,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha
otlarning bosh soni, bosh**




Parrandalar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, % da



Bosh sonining xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari ● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari ● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2023 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- parrandalarning umumiy soni 5196,9 ming boshga yetdi.
- parrandalar bosh soni 2022 yilning 1 yanvariga nisbatan 141,4 ming boshga (2,8 %) ko'paydi.
- parrandalar bosh sonining 77,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha parrandalarning bosh soni, ming bosh

